

XORIJIY TILDAGI FRAZEOLOGIK IBORALARNI QIYOSIY O'RGANISHNING AYRIM XUSUSIYATLARI

Abdug'affar Davlayev

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Behzod Xudoyqulov

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola chet tilidagi frazeologik iboralarni qiyosiy o'rganishning o'ziga xosliklarini tahlil etishga bag'ishlangan. Maqolada berilgan iboralar va ularning o'ziga xos xususiyatlari turli misollar orqali tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Frazeologiya, ibora, tarjima, asliyat, ekvivalent..

НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ СОПОСТАВИТЕЛЬНОГО ИЗУЧЕНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ИНОСТРАННОМ ЯЗЫКЕ

Абдуғаффар Давлаев

Денауский институт предпринимательства и педагогики.

Бехзод Худойқулов

Денауский институт предпринимательства и педагогики.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются особенности изучения фразеологических единиц. Теоретическая информация об фразеологизмы основана на примерах.

Ключевые слова: Фразеология, фразеологизмы, фразема , перевод, эквивалент..

SOME FEATURES OF COMPARATIVE STUDY OF PHRASEOLOGICAL EXPRESSIONS IN A FOREIGN LANGUAGE

Abdugaffar Davlaev

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Bekhzod Khudaykulov

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

ABSTRACT

The point of the current paper is to show some issues of comparative study of phraseological units. Theoretical data about phraseological units are discussed and analyzed with reasonable examples.

Keywords: *Phraseology, phraseological unit, translation, originality, equivalent.*

KIRISH

Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi, uning turli muhit va qatlamlari (leksika, grammatika, stilistika, norma va uning variantlariga nisbatan qo'llanilish muammosini to'laligicha xal etish borasida hanuzgacha muayyan qiyinchiliklar mavjud. Shu bilan bir qatorda tilning ijtimoiy tabiat faqat uning mavjudligini (so'zlearning muhim "ijtimoiy rang-baranglikka ega" qismini ko'rsatish bilan) emas, balki tashqi shart sharoitlarni, ya'ni ekstralengvistik muhitni tan olishda tilning va uning barcha funktsiyalarini, shu jumladan leksika, frazeologiya, grammatika va hokazolarning ijtimoiy mohiyatiga kirib borib, sheva mavjudligini barcha shart - sharoitlarini va ularning mazkur ijtimoiy muhitni bilib olishda bajargan vazifalarini taxlil qilish orqali talqin etiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Frazeologizm so'z kabi lug'aviy birlik hisoblanadi. Ular ham so'z kabi tilda tayyor holda mavjud bo'lganligi sababli nutq hodisasi emas, balki til hodisadir. So'z leksik ma'noga ega bo'lgani kabi frazeologizm o'am o'zining frazeologik ma'nosiga ega. So'zdagi barcha paradigmatic, sintagmatic xususiyatlarni frazeologizmlarda ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga frazeologizmlar so'z va erkin so'z birikmasidan bir qancha xususiyatlari bilan farqlanadi. Masalan, frazeologizm frazeologik sath elementi, birligi sifatida frazeologiya va frazeografiya ob'ektidir. Frazeologiyani tashkil etuvchi komponentlar ma'no butunligiga ega emas, ular faqatgina shakl va tovush tomoni bilan so'zga o'xshaydi. Ularni tashkil qiluvchi komponentlarning frazeologik ma'nosini turg'un, ko'proq emotSIONAL ekspressiv xususiyatga ega bo'lgan belgi, harakat kabilarni ifodalaydi. Shuning uchun ham frazeologik ma'no leksik ma'nodan bir qancha jihatlari bilan farqlanadi.

Frazeologik iboralarni o'rganishda ularni tematik-mavzulashtirilgan tarzda tahlil qilish samaraliroq hisoblanadi. Ikki tildagi frazeologik birliklarni qiyosiy o'rganishda ham ularni tematik jihatdan tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir. Quyidagi misollarda Italian tilidagi frazeologik iboralarning O'zbek tilidagi ma'nolarini tematik jihatdan tahlil qilamiz:

1. **Modi di dire con i verbi - fe'lli iboralar:**

Dare una mano - Yordam qo'lini cho'zmoq/yordam bermoq.

Alzare le mani - Qo'l ko'tarmoq/urmoq.

Di seconda mano - Ishlatilgan, qo'ldan – qo'lga o'tgan narsa buyum (avtomobil) ga nisbatan ham ishlatiladi.

Chiedere la mano - Qo'lini so'ramoq (qiz boladan turmushga chiqishini so'ramoq) ma'nosida ishlatiladi.

Prendere per mano - Yordam bermoq, to'g'ri yo'lni korsatmoq.

Essere al settimo cielo- Baxtga/ quvonchga to'la bo'lmoq.

Dare coraggio - Ruhlantirmoq.

Andare in fumo - Barbod bo'lmoq

Essere in gamba - O'zini o'nglab olgan, oyoqqa turgan.

2. Modi di dire con le preposizioni - predlogli iboralar:

A caro prezzo - Qimmat narxda

A dire il vero - Rostini gapirganda

A dirla schietta - Ochiq,oydin gapirganda

A due mani - Sahiy

A mano a mano - Sekin-sekin, bosqichma-bosqich.

A nessuno e nascosto - Hech kimga sir emas (hammag'a ma'lum...)

A noi! - Boshladik! (Bizning navbat!)

A norma di legge - Qonunga muvofiq

3. “Non” (Pane) so‘zi ishtirok etgan iboralar:

“Buono come il pane” – Muloyim insonga nisbatan ishlatiladi

“Non è pane per i tuoi denti” – (Bu narsa) Senga atalmagan, degan ma'noda ishlatiladi.

“Per un pezzo di pane” – Juda past narxda.

4. Italiany tilidagi “bosh” komponentli somatik iboralar:

Essere una (gran) testa – Ma'nosi - Judda zukko, aqlly inson. (So'zma – so'z tarjimasi –kallasi bor).

Testa matta, stramba – O'zini hayratlanarli, g'alati tutadigan insonga nisbatan ishlatiladi.

Testa calda – G'ayrati/jahli tez odam ga nisbatan ishlatiladi.

Testa dura – O'jar/qat'iyatli odam ga nisbatan ishlatiladi.

Testa di legno, d'asino, di rapa – Aqli kech ishlaydigan odam ga nisbatan ishlatiladi.

Testa vuota – Kallasi bo'm-bo'sh, Javob bera olmaydigan, ma'suliyatsiz odam ga nisbatan ishlatiladi.

5. Italiany tilidagi “ko’z” komponentli somatik iboralar:

Chiudere un occhio → *O'zini hech narsa bo'l magandek tutmoq, biror narsaga ko'z yummoq.*

Aprire gli occhi → *Ko'zini ochmoq (to'g'ri yo'l ni ko'stamoq.)*

A occhi chiusi → *Osonlik bilan, katta ishonch bilan (biror ishni bajarmoq)*

6. Modi di dire sugli animali - hayvon nomlariga oid iboralar

Una dose da cavallo - *Dorining yuqori dozasi – ga nisbatan ishlatiladi (tibbiyotda)*

Capro espiatorio - *Hamma aybni o'z bo'yniga oladigan.*

Salvare capra e cavoli - *Har ikkala talabni ham qondirmoq/qoniqtirmoq.*

Essere come una cicala - *Kun o'tariga yashab, pulni sarflaydigan.*

Essere come una formichina - *Pulni tejaydigan va kelajakni o'laydigan bo'lish.*

Fare la civetta - *Ahmoqona gapirib e'tiborni tortmoq.*

Aver la memoria come un elefante - *Juda zo'r xotiraga ega.*

7. Modi di dire con i colori - rang – tus nomlari ishlatilgan iboralar:

Vedere nero - *Hammasini salbiy jihatdan ko'rish.*

Essere nero - *Juda yomon kayfiyatda bo'lish.*

Vedere rosso - *Jahli chiqqan.*

Essere rosso dalla vergogna - *Juda tortinmoq/uyalmoq.*

Dare il disco rosso - *Bir narsani to'xtatmoq.*

Vedere rosa - *Narsalarni ijobiy jihatdan ko'rish.*

8. Modi di dire sul tempo - vaqt so'ziga oid iboralar:

A tempo - *Vaqtida*

A tempo avanzato - *Bo'sh vaqtarda*

Ad un tempo - *Bir vaqtida*

Col tempo - *O'z vaqt bilan, o'z vaqtida*

9. Modi di dire sulla famiglia - oila mavzusiga oid iboralar:

Fare famiglia con qd - *Biror kishi bilan birga yashash*

Figlia di famiglia - *Yaxshi oilaning qizi*

Figlio di famiglia - *Taniqli oila farzandi*

Farsi una famiglia - *Oila qurish*

Tenere famiglia - *Oilani birlashtirib ushlab turish*

10. Modi di dire sulla terra - yer so'zi ishlatilgan iboralar:

Cadere a terra - *Muvaffaqiyatsizlikka uchrash, qulash.*

A fine terra - *Dunyoning chekkasida*

Ci corre quanto dal cielo alla terra - *U yerdan osmon qadar uzoqda*

Esserci differenza quanto dal cielo alla terra - Yer bilan osmonchalik farqi bo'lmoq

11. Modi di dire sulla luna - oy va quyosh so'zlari ishlatilgan iboralar:

Colpo di luna - Tasodify ehtiros

Luna di miele - Asal oyi

Vivere nel mondo della luna - Dunyodan tashqarida, boshqa dunyoda yashamoq

Levare le pecore dal sole - Biror narsani yashirmoq

Mangiare un poco di sole - Quyoshda toblanmoq

12. Modi di dire sulla parola e parlare - so'z va so'zlashga oid iboralar:

Ritira la parola! - So'zlarining qaytarib ol

Rubare la parola in bocca a qd - Birov aytmoqchi bo'lgan narsani boshqasi ilg'ab oldindan aytib qo'yish

Senza dir parola - Bir so'z demasdan

Obrazlilik muammosini o'rganish tilning butun frazeologik tizimini obrazli tashkil etilganini aniqlashga yordam beradi. Obrazning frazeologiyadagi asosiy vazifasi – g'oya, fikrni ta'sirchanrok qilib ifodalab berishdir. Frazeologik birlik frazeologik obrazni, o'ziga xos manzarani ifodalaydi va ularning fonida frazeologik birlikning butun ma'nosi idrok qilinadi. Inson faoliyatining hartomonlama xususiyatlari turli tillardagi frazeologik birlik xususiyatlarini ham yuzaga keltiradi, bu esa milliy frazeologiyaning paydo bo'lishining asosiy manbasidir. Frazeologizmning dalilligini, ya'ni uning ichqi shakli mavjudligini, berilgan mazmunni tegishli iboraga ma'lum darajada bevosita bog'lanish yo'li deb ta'riflash mumkin. Leksemalar asoslanishini assotsiativ mohiyatini tushunishdan kelib chiqib, olam manzarasiga murojaat etish kerak va asoslarni ontologik mohiyatini nolisoniy voqelikning hodisasi sifatida aniqlash kerak. Tildagi inson faktorini lingvokulturologik tahlili, shuningdek turli millat vakillarining nutqiy kommunikatsiya jarayoniga jiddiy e'tibor chet tilini o'rganish va anglashdagi yangi imkoniyatlarni ochib berishga yordam beradi.

XULOSA

Inson dunyoni, eng avvalo, ijtimoiy tajriba prizmasi orqali qabul qilsada, biroq konkret tarixiy davrning har bir individiga o'zining olam manzarasi xos. Inson ijtimoiy mavjudot sifatida doimiy kommunikatsiya jarayonida bo'lgani bois muloqot jarayonida shakllanishida o'zi qatnashmagan tayyor dunyoqarashga ega bo'ladi. [2 - 10 b.] Turli xalqlarning olamning lisoniy manzarasini batafsil o'rganish, tillarda madaniy qadriyatlarni kodlashtirish qay tarzda sodir bo'layotganini yaxshiroq

tushunish imkonini beradi va bu, o'z navbatida, odamlarning bir-birini tushunishini yengillashtiradi.

REFERENCES

1. Oltiev T., Xudoyqulov B. Italian tilidagi iboralarning tarjimasi" lug'ati. – 2021.
2. Холмурадова Л.Э. "Инглиз ва француз тилларидаи образли ва мотивлашган фразеологизмларнинг тематик-идеографик талқини. (лингвомаданий аспект)". (PhD) диссертацияси автореферати. 2017. 10 b.
3. Қудрат Мусаев. Таржима назарияси асослари: Дарслик.Т.: «Фан» нашриёти, 2005.-13 б.
4. Behzod, X. (2021, June). ITALYAN TILIDA PREDLOGLAR BILAN ISHLATILADIGAN AYRIM IBORALARNING TARJIMASI XUSUSIDA. In *Conferences*.
5. Xudoyqulov, B., & Ruziboyeva, D. (2022). FRAZEOLOGIK IBORALARNING O'RGANILISHI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 396-402.
6. <https://dictionary.reverso.net/italian-english/>
7. <https://en.bab.la/dictionary/italian-english/>
8. https://www.lexilogos.com/english/italian_dictionary.htm